TILSHUNOSLIKNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI BILAN BOG‘LIQ TERMINOLOGIYA

Olimova Mushtariybonu Azizjon qizi

ToshDO‘TAU 3-bosqich talabasi

olimovamushtariybonu2005@gmail.com, +998877702709

Ilmiy rahbar: F. f. d., Prof, **Zulxumor Xolmanova**

Annotatsiya: Mazkur maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari tarkibida shakllangan terminologik tizimlar tahlil qilindi. Xususan, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, kompyuter lingvistikasi hamda lingvokulturologiya sohalariga oid terminlarning kelib chiqishi, shakllanish manbalari, o‘zbek tiliga kirib kelish yo‘llari va semantik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot davomida terminlarning asosan ingliz, rus, lotin va yunon tillari asosida shakllangani, ularning o‘zlashma, kalkalash va semantik ixtisoslashish jarayonlari orqali tilga singgani tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy tilshunoslik, terminologiya, kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, kompyuter lingvistikasi, konsept, freym, diskurs, lingvokulturema, termin, o‘zlashma terminlar, kalkalash.

Abstract: This article analyzes the terminological systems formed within the modern branches of linguistics. In particular, it examines the origin, formation sources, ways of entering the Uzbek language, and semantic features of terms related to cognitive linguistics, sociolinguistics, pragmalinguistics, computational linguistics, and linguoculturology. The study reveals that these terms were mainly formed on the basis of English, Russian, Latin, and Greek languages and became integrated into the language through borrowing, calquing, terminologization, and semantic specialization processes.

Keywords: modern linguistics, terminology, cognitive linguistics, sociolinguistics, pragmalinguistics, linguoculturology, computational linguistics, concept, frame, discourse, linguocultureme, term, borrowed terms, calquing.

Tilshunoslik muayyan tilning ijtimoiy tabiati va jamiyatdagi vazifalari, uning ichki tuzilishi, faoliyati, tarixiy taraqqiyoti va tasnifiga oid fandir. Lingvistika so‘zi fransuzcha “Linguistique” so‘zidan olingan bo’lib, tilshunoslik demakdir. Ushbu fan o‘ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lgan aloga qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun obyekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko‘rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Lingvistika nihoyatda qudratli ma’naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o‘rganish jarayonida quyidagi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

XX asrda psixologiya, sun’iy intellekt, neyrobiologiya va falsafa fanlarida inson tafakkuri va bilish jarayonlarini o‘rganishga katta e’tibor qaratildi, bu esa kognitiv tilshunoslikning rivojlanishiga turtki berdi. Kognitiv so‘zi inglizcha “cognize – bilmoq, anglamoq, tushunmoq” dan olingan bo‘lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog‘lab, uning hosil bo‘lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarning ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi.

Kognitiv tilshunoslikning tayanch tushunchalaridan biri – bu konseptdir. Bu atama XX asrning 90-yillariga kelib keng qo‘llanila boshladi. Konsept so‘zi aslida lotincha conceptus bo‘lib, “tushuncha” ma’nosini ifodalaydi. Hozir ham ko‘pincha “konsept” terminidan “tushuncha” so‘zining sinonimi sifatida foydalanilmoqda. Shuningdek, konsept termini matematik logika, madaniyatshunoslik, psixologiya kabi fanlarda ham faol qo‘llanilmoqda[6].

Kognitiv tilshunoslik terminlari ko‘p qatlamli manbalarga ega:

Asosiy manba – ingliz tili

Ilmiy ildiz – lotin va yunon tillari

Vosita – rus tili

Qo‘shimcha manbalar – nemis va fransuz tillari

Bu holat kognitiv tilshunoslikning fanlararo (lingvistika, psixologiya, falsafa, neyrofan) xususiyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Terminologik jihatdan kognitiv tilshunoslik birliklarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruh – asosiy nazariy terminlar: *konsept, kognitsiya, kategoriya, freym, skript, prototip*. Bular sohaning markaziy tushunchalarini ifodalaydi. Ikkinchi guruh – jarayon bildiruvchi terminlar: *konseptuallashtirish, kategoriyalash, interpretatsiya, modellashtirish.* Uchinchi guruh – tahlil vositalari va metod terminlari: *konseptual tahlil, freym tahlili, metaforik modellashtirish, kognitiv xaritalash.* To‘rtinchi guruh – natija yoki tuzilma bildiruvchi terminlar: *olamning lisoniy manzarasi, konseptosfera, mental model.*

Ushbu terminlarning yasalish usullarida ham o‘ziga xoslik mavjud. Bir qismi oddiy o‘zlashma terminlar: *konsept, freym, skript*. Ikkinchi qismi affiksatsiya yo‘li bilan yasalgan: *konseptual, kognitivlik, kategoriyalash, modellashtirish.* Uchinchi qismi termin-birikmalardan iborat: *konseptual metafora, mental makon, til manzarasi, kognitiv model, obraz sxemasi*. To‘rtinchi qismi kalka yo‘li bilan qabul qilingan: *language picture of the world → olamning lisoniy manzarasi, image schema → obraz sxemasi, mental space → mental makon.*

XX asrning 50-yillaridan boshlab tilshunoslikda “mashina tarjimasi”, “mashina tilshunosligi” atamalari qo‘llanila boshlandi. Bu asrning buyuk kashfiyoti bo‘lgan kompyuter texnologiyalari tilshunoslikka ham kirib kelganining isboti edi. Kompyuter lingvistikasi matematik lingvistikaning mantiqiy davomi bo‘lib, u amaliy tilshunoslikning eng muhim qismini tashkil etadi. Kompyuter lingvistikasi inglizcha *“computational linguistics”* so’zining kalkasidir. XX asrning 80-yillariga qadar bu fan turlicha nomlar bilan atalgan: *hisoblash lingvistikasi, matematik lingvistika, kvantitativ lingvistika, injener lingvistikasi* kabi. Bu fanning asosiy maqsadi lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqish, inson va mashina (kompyuter) muloqotini optimallashtirish, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing)dir[3].

Ushbu soha terminlarining katta qismi xalqaro ilmiy muhitda dastlab ingliz tilida yuzaga kelgan. Buning asosiy sababi shundaki, kompyuter texnologiyalari, dasturlash, internet va sun’iy intellekt sohalarining markaziy rivojlanish muhiti uzoq vaqt davomida ingliz tilida faoliyat yuritgan. Natijada *software, hardware, parser, token, corpus, chatbot, prompt, dataset, speech recognition, machine translation* kabi terminlar avval ingliz tilida qo‘llanib, keyinchalik boshqa tillarga, jumladan, o‘zbek tiliga ham kirib kelgan.

Kompyuter lingvistikasiga oid ayrim terminlar esa ingliz tiliga boshqa Yevropa tillaridan o‘tgan holda xalqaro tus olgan. Masalan, lingvistika termini lotincha lingua — “til” so‘zidan kelib chiqqan. Korpus termini lotincha corpus — “tan, jamlanma, to‘plam” ma’nolarini bildiradi. Demak, bugungi kompyuter lingvistikasi terminologiyasi faqat inglizcha qatlamdan iborat emas, balki qadimgi yunon va lotin manbalariga ham ega.

O‘zbek tiliga ushbu terminlar ikki asosiy yo‘l bilan kirib kelgan. Birinchi yo‘l – bevosita o‘zlashma shaklda qabul qilish, bunda termin asl talaffuzi yoki yozilishiga yaqin ko‘rinishda qo‘llanadi: *chatbot, parser, prompt, token, model, server* kabi. Ikkinchi yo‘l – tarjima yoki kalkalash usuli orqali o‘zlashtirishdir. Masalan, machine translation termini o‘zbekchada mashina tarjimasi, *speech recognition – nutqni tanish, language model – til modeli, artificial intelligence – sun’iy intellekt, natural language processing – tabiiy tilni qayta ishlash* shaklida ishlatiladi. Ba’zi terminlar o‘zbek tiliga rus tili vositasida kirib kelgan. Chunki sobiq ittifoq davrida ilm-fan va texnika terminologiyasining katta qismi rus tili orqali o‘zlashgan. Masalan, *algoritm, sistema, programma, kod, analiz, sintez, informatika* kabi birliklar avval rus tilidagi shakllari orqali faol qo‘llangan. Keyinchalik ingliz tilining nufuzi oshgani sari yangi terminlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ingliz tilidan kirib kelmoqda. Kompyuter lingvistikasi terminologiyasida

bugungi kunda uch qatlam kuzatiladi: birinchi qatlam – xalqaro yunon-lotin ildizli ilmiy terminlar; ikkinchi qatlam – rus tili orqali kirgan texnik terminlar; uchinchi qatlam – zamonaviy ingliz tilidan bevosita kirayotgan yangi raqamli terminlar. Shu bois mazkur soha terminologiyasi ko‘p manbali va aralash tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida XX asrning 60-70-yillarida shakllandi. Ushbu davrda tilga faqat tizim sifatida emas, balki muloqot jarayonida faol qo‘llanuvchi vosita sifatida yondashuv kuchaydi. 1970-yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya pragmalingvistikaning shakllanishida muhim bosqich bo‘ldi. Pragmalingvistika tilning faqat axborot uzatish vositasi emasligini, balki muloqot jarayonida ta’sir ko‘rsatish, ishontirish, undash, shuningdek, emotsional-ekspressiv holatlarni ifodalash funksiyalarini ham bajarishini o‘rganadi. Shu jihatdan u tilning kommunikativ va funksional imkoniyatlarini tahlil qiladi[4].

Pragmalingvistikada implikatura (implicature) va presuppozitsiya (presupposition) kabi tushunchalar keng qo‘llaniladi. Implikatura – nutqda bevosita ifodalanmagan, ammo kontekst asosida anglashiladigan yashirin ma’no bo‘lsa, presuppozitsiya – nutqdan oldin mavjud bo‘lgan va umumiy bilim sifatida qabul qilinadigan ma’nodir.

Pragmalingvistikaning yana bir muhim tushunchasi – kontekst (context) bo‘lib, u nutqning yuzaga kelish sharoiti, ya’ni zamon, makon, ishtirokchilar va kommunikativ vaziyatni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, diskurs (discourse) tushunchasi ham muhim bo‘lib, u nutqning kengroq, izchil va ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq shaklini anglatadi.

Sotsiolingvistika (lot.societas – jamiyat va lingvistika) – tilshunoslik, sotsiologiya (jamiyatshunoslik), ijtimoiy psixologiya va etnografiya fanlari tutashmasida rivojlanuvchi va tilning ijtimoiy tabiati, uning ijtimoiy vazifalari, tilga ta’sir ko‘rsatish mexanizmi hamda tilning jamiyat hayotida tutgan o‘rni bilan bog‘liq ko‘plab muammolar majmuini o‘rganuvchi ilmiy nazariy soha hisoblanadi.

“Sotsiolingvistika” terminini fanga birinchi marta 1952-yilda amerikalik sotsiolog G.Karri tomonidan kiritildi’. J.A.Fishmanning “Til jamiyatidagi ma’ruzalar” (“Readings in the Societ of Language”) nomli to‘plamiga kirgan 50-yillarning lingvistlari sotsiologlari, madaniyat antropologlari, dialektologlari va kommunikatsiya (muloqot) sohasi turli mutaxassislarining maqolalarida sotsiolingvistikaga oid muammolar ko‘tarib chiqildi.

O‘zbek sotsiolingvistik terminlari milliy tilning ichki imkoniyatlari asosida shakllanadi. Bu jarayonda:

- chet tillardan olingan terminlarni o‘zbekchalashtirish: bilingvizm — ikki tillilik;
- yondosh fanlardan termin o‘zlashtirish: ijtimoiy maqom, status;
- oddiy so‘zlashuvdagi so‘zlarning ilmiy termin sifatida

shakllanishi muhim o‘rin tutadi.

Neyrolingvistika – tilshunoslikning eng yangi sohasi sifatida ma’lum bo‘lib, u miyadagi neyronlarning tilni hosil qilishdagi xizmatini o‘rganuvchi sohadir. Neyrolingvistika psixolingvistika bilan uzviy bog‘liq va ba’zan ular o‘rganadigan obyektlar aralashadi[7]. Hozirgi davrda ilm-fan rivojlanishi natijasida neyrolingvistika sohasiga oid ko‘plab terminlar o‘zbek tiliga kirib kelmoqda. Bu terminlarning aksariyati yunoncha va lotincha manbalarga ega bo‘lib, rus tili orqali o‘zlashgan.

Afaziya – bosh miya po‘stlog‘idagi nutq markazlarining zararlanishi natijasida yuzaga keladigan nutq buzilishidir. Termin ingliz tilidagi *“Aphasia”* shaklidan rus tiliga *“Афазия”* ko‘rinishida o‘tgan va o‘zbek tiliga *“Afaziya”* shaklida kirgan.

Ekspressiv nutq – insonning o‘z fikrini og‘zaki ifodalash qobiliyati. Ushbu termin lotincha “expressio” – “ifodalash” so‘zidan kelib chiqqan. Ingliz tilidagi *“Expressive speech”* birikmasi rus tiliga *“Экспрессивная речь”* tarzida o‘tgan va o‘zbek tilida *“Ekspressiv nutq”* shaklida qo‘llanmoqda.

Impressiv nutq — insonning eshitilgan yoki o‘qilgan nutqni tushunish qobiliyatini. Termin lotincha “impressio” — “ta’sir qilish, qabul qilish” ma’nolarini bildiradi. Ingliz tilidagi *“Impressive speech”* birikmasi rus tili orqali o‘zbek tiliga *“Impressiv nutq”* shaklida kirgan.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir degan faraz qabul qilina boshlandi. Ayni paytda til madaniyatning yaratilish vositasi, rivojlanishi, saqlanishi (matnlar ko‘rinishida) va uning tarkibiy qismidir. Chunki til vositasida madaniyatning moddiy va ma’naviy asarlari yaratiladi. Ana shu g‘oya asosida ming yillar davomida shakllangan lingvokulturologiya fanning yangi, maxsus sohasi sifatida XX asrning 90-yillarida vujudga keldi[1].

Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, u so‘nggi o‘n yilliklar davomida rivojlanib kelmoqda. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi.

O‘zbek tiliga lingvokulturologik terminlar asosan uch yo‘l bilan kirib kelgan. Birinchi yo‘l – bevosita o‘zlashma shaklda qabul qilish, bunda termin asl shakliga yaqin ko‘rinishda ishlatiladi: *arxetip, mentalitet, stereotip, simvol, mifologema* va boshqalar. Ikkinchi yo‘l — tarjima yoki kalkalash usuli orqali o‘zlashtirishdir. Masalan, *языковая картина мира / language picture of the world* termini o‘zbekchada *olamning lisoniy manzarasi* yoki til manzarasi tarzida qo‘llanadi. *Cultural code – madaniy kod, national character – milliy xarakter, speech etiquette – nutq etiketi* shaklida ishlatiladi. Uchinchi yo‘l – milliy til imkoniyatlari asosida yangi termin yaratishdir. Masalan, *qadriyat birligi, milliy timsol, madaniy makon, madaniy meros* kabi variantlar shular jumlasidandir.

Lingvokulturologiya terminologiyasida bir necha asosiy qatlam kuzatiladi. Birinchi qatlam – tilshunoslikka oid terminlar: *semema, metafora, frazeologizm, nominatsiya, diskurs*. Ikkinchi qatlam — madaniyatshunoslik terminlari: *qadriyat, urf-odat, marosim, an’ana, mif, ramz.* Uchinchi qatlam — psixologik va ijtimoiy terminlar: *mentalitet, stereotip, identitet, muloqot xulqi*. Shu sababli lingvokulturologik terminologiya murakkab va ko‘p tarmoqli tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari fan taraqqiyoti, texnologik rivojlanish va turli sohalar integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan muhim ilmiy tarmoqlardir. Kompyuter lingvistikasi, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv tilshunoslik kabi yo‘nalishlar tilni an’anaviy yondashuvdan tashqari yangi nuqtayi nazardan o‘rganishga xizmat qilmoqda. Mazkur yo‘nalishlarning shakllanishi bilan bir qatorda ularga oid maxsus terminologik tizim ham paydo bo‘lib, tilshunoslik leksikasining boyishiga sabab bo‘ldi.

Shuningdek, zamonaviy tilshunoslik terminlarining asosiy qismi xalqaro ilmiy manbalardan kirib kelgan. Ularning ko‘pchiligi lotin va yunon tillariga borib taqalsa, zamonaviy fan-texnika bilan bog‘liq terminlar asosan ingliz tilidan, ayrimlari esa rus tili vositasida o‘zlashgan. Ba’zi terminlar asl shaklda saqlansa, ayrimlari fonetik, grammatik va ma’noviy jihatdan moslashgan holda ishlatiladi. Bu esa o‘zbek tilining yangi ilmiy tushunchalarni qabul qilish va o‘zlashtirish imkoniyati keng ekanini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmaraimova, Sh.(2017). Lingvokulturologiya. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Pardayev, Z. (2013). Pragmatik lingvistika. – Samarqand. 104-b.
3. Rahimov, A. (2011). Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent.
4. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. – Toshkent. 318-b.

5. Usmanova, Sh. (2014). Lingvokulturologiya. – Toshkent: “Universitet”.
6. Xudoyberganova, D. (2024). Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Bookmany print.
7. https://erus.uz/index.php/er/article/download/2843/3674/3227.
8. https://cyberleninka.ru/article/n/neyrolingvistika-tahlil-va-talqin/viewer.